

## LIRIK JANR TABIATIDA POETOLOGIK KONSTRUKSIYA YAXLITLIGI

Ravshanova Gulruxbegim Qahramon qizi

QarshiDU, dotsent filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

+998972296927

### Annotatsiya

Ijtimoiy-madaniy hayot silsilalarida avvalo, eng katta janriy-kompozitsion yaxlitlik zamzamalari ma'rifatparvarlik davri ijodkorlari asarlarida bo'y ko'rsatib, keyinchalik qat'iy tamoyillarda yanada sayqallana boshladi. Individual xarakterdan ibtidolangan va so'ngra umumkayfiyatga tutashuvi hajnavislikning falsafiy-estetik mezonlarini yangilashga zamin hozirladi. Kuchli tanqidiy-psixologik kayfiyat hajviy asarlarning takomillashuviga evrila boshlandi. Bu aynanlik adabiy yo'nalishlarda yangi-yangi janrlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Mana shu jihatlar biz tadqiq etayotgan yangi o'zbek she'riyatida hajnavislik hodisasining poetik talqinini aniqlashda hajviy she'riyatdagi mavzu, muammo, g'oya, pafos kabi tushunchalarning terminologik ma'nolariga aniqlik kiritildi.

**Kalit so'zlar:** yumor, tanqid, satira, hajnavislik, poetologik konstruksiya, pafos, mavzu, g'oya, mezon, kulgi va yig'i motivi.

### Abstract

First of all, in the series of socio-cultural life, the greatest genre-compositional integrity appeared in the works of the creators of the Enlightenment period, and later they began to be further refined in strict principles. Starting from the individual character and then connecting to the general mood, it prepared the ground for updating the philosophical-aesthetic criteria of humorism. A strong critical-psychological mood began to evolve into the improvement of comic works. This led to the emergence of new genres in literary directions. These are the aspects that we are studying in the new Uzbek poetry, and in determining the poetic interpretation of the satirical phenomenon, the terminological meanings of the concepts such as theme, problem, idea, and pathos in the satirical poetry have been clarified.

**Keywords:** humor, criticism, satire, humor, poetic construction, pathos, theme, idea, criterion, motive of laughter and crying.



Odatda, hajviy she'riy shakllarning mohiyatida ijtimoiy silsilalarning poetologik qamrovi bir qadar erkin kechadi. Ijodkor "kulgi va yig'i" orasidagi masofani chegaralab oladi. Kulgining zamirida ichki "men", iztirob, qayg'u va hamdardlik san'at nuqtai nazaridan yashirinadi. Yig'i shaklidagi she'riy asarlarda bu o'quvchiga ochiqdan-ochiq oshkor qilinadi. Mana shu ikki tafovut hajviy she'riy asarlar konstruksiyasida jiddiy mushohada yuritishni taqozo qiladi.

XX asr 60-yillaridan boshlagan turg'unlik iqlimlari negizida qayta qurishgacha bo'lgan vaqtning rangin qiyofasi aks etganligini ko'rshimiz mumkin. Inson tabiatida hukmronlik qilayotgan soxta metodga moyillik san'at asariga biryoqlama baho berishni ham chegaralab tashladi. Ba'zan ijodkor-mardum o'zining chinakam tuyg'ularini she'rga aylantirishda bir qadar ikkilanishlar og'ushida yashadi. Mana shu jihatlarning o'ziga xos markazida inson qismati va uning yashash istagi turganligini hech qachon unutmaslik, baholashda ana shu mezonlar negizida yondashish lozim.

Atoqli olim va shoir Jamol Kamol ta'biricha: "Lirika fikr va tuyg'ularni ana shu birlik va cheksizlikda aks ettiradi. Lirika fikr va hissiyotlar dialektikasini tasvirlash bilan inson tabiati tamannolarini, inson xarakteri jilvalarini aks ettiradi. Buning uchun lirika zarur imkon va vositalarga ega. Ularning barchasini u insoniy xarakterlar yaratishga safarbar qiladi"<sup>1</sup>. Haqiqatdan ham, fikr va ruh ziddiyati, ijtimoiy-psixologik tarang vaziyatda shoir kuchli tug'yonlarni boshidan kechiradi. Ichkarida yig'lagan tuyg'ular, tashqariga kulgi tarzida chiqishi va u oddiy odamlarda faqat zavq olish vositasini o'taydi. Aynan shu yerda haqiqiy adabiyotning chehrasi namoyon bo'ladi. San'at asarining ta'sir qilish maydoni ham kengaya boradi.

Kulgining eng ajoyib xususiyati – bu odamlarni birlashtirish qobiliyatining beqiyosligi. U shu bilan birga nafaqat kuluvchilarni, balki uni sinchkovlik bilan o'rganayotganlarni ham birlashtiradi. Ammo hajviyot turlari nafaqat umumiy manfaatlarga bog'liq bo'lgan insonlarni birlashtiradi, balki guruhlarini bir-biridan farqlash vositasi bo'lib ham xizmat qiladi. Shuning uchun sanab o'tilgan vazifalar bir-biriga zid emas. Bu guruhni boshqalardan ajratish uning o'ziga xosligini ta'kidlaydi, shuning uchun ularning to'planishi kulgi shakllarini ravshanroq aniqlashga yordam beradi. Kulgi ko'rinishni qiziqarli iboralar yoki qisqa latifalarga aylantirishga yordam beradi. Hajv mavjud meyorlarni bajarishga, rad etishni tanqid qilishga, sizga yoqmagan narsani masxara qilish orqali yordam berib hajv qiladi. Bundan tashqari, siz qo'pollik va noaniq inkordan qochib o'z nuqtai nazaringizni bildirasiz.

<sup>1</sup> Жамол Камол. Шеър санъати. –Т., "Янги аср авлоди". 2018. –Б.123.



Hajviy she'riy shakllarda "qotib qolgan" barmoq vazni tabiati ko'p uchrasa-da, R.Parfi, Sh.Rahmon, V.Fayzullo, Faxriyor ijodida hajvning "moderncha" tabiati yaqqol ko'zga tashlanadi. E.Vohidov, A.Oripov, A.Bodijon, O.Matjon poetik izlanishlarida bu hodisa bir qadar "tartibli ritmik bo'laklar"da namoyon bo'ladi. Aslida, tuyg'u va fikr she'rga yuklatilgan ma'noni yuzaga chiqaradi. Shakl esa nisbiydir. Betakror shoir U.Azim ta'biricha: "SHe'ning udum bo'lgan qofiyali tizimi va simmetrik qiyofasini buzishga urinishlar jahon adabiyotida XX asrning boshidayoq "rasmiylashtirilgan" bo'lsa, bizda bu holat biroz cho'zildi. Garchi o'ttizinchi yillarda yozilgan "sochma"larga bu yo'ldagi ilk tajribalar deb qaragam ham, ulardagi ortiqcha pafos, she'riy ma'noning sayozligi yoxud haddan tashqari yalong'ochligi, tasvirlangan va faqat she'rga xos bo'lmagan ma'noning yo'qligi ("ko'rmas"dan yozish) – bu tajribaning davom etishiga yo'l qo'ymadi. O'ttizinchi yillardan oltmishinchi yillargacha esa zamon ruhiga "quloq tutish"ning imkoniyati ham bo'lmagan. Birinchidan, bu ruh eshitishi, uning shaklini ko'rishi mumkin bo'lgan ulug' shoirlar qatag'on qilingan bo'lsa, ikkinchidan, eshitganlar ham eshitmaslikka olishga majbur edi. Shakl ikkilamchi deb e'lon qilinishining o'ziyoq "faqat mana bunday yoz" degan po'pisali qo'rqituvning nozik ko'rinishi ekanini, albatta, barcha ijodkorlar dahshatli hadiq orqali anglaganlar". Binobarin, Usmon Azim maslaganing nechog'li achinarli holat, ya'ni san'at asarining ma'shum ko'rgiliklarni boshidan o'tkazganligi, shunday bo'lsa-da, o'ziga, uslubiga yarashqli so'qmoqlar topib olganini e'tibordan chekkada qoldirish mumkin emas. Aslida, poetologik knstruksiya ana shu mezonlarni tartiblashtiribgina qolmay davom etayotgan vaqtning iskanjasida hukm surayotgan kayfiyatning o'ziga xosligini ham yuzaga chiqarishga zamin hozirlaydi.

Abdulla Oripovda hajviyot masalasi ba'zan jiddiy tarzda ham ifodalanganini kuzatamiz. Shoirning 1993 yil yozilgan "Echki" she'rida aqlu farosat, bilimdonlik, o'zidan boshqani o'ylamaydigan kimsalarga o'xshatma tarzida bayon qilinadi. SHe'ning birinchi bandining o'ziyoq shoirning jiddiy hazil-mutoyibasi o'quvchiga taqdim qilinadi:

Hammaga ma'lumdir echking fe'li,  
Qozonga tushguncha tinch tura olmas.  
Doim egri bo'lgay tanlagan yo'li,  
Hunar ko'rsatmasa jim yura olmas.

Goho nihollarni g'ajiydi obdon,  
Cho'pon tayog'iga teginar goho.



Suruvni jarlikka boshlar nogahon,  
O‘zi chetlab o‘tar xatarni ammo.

Bir kuni echkining g‘ayrati qo‘zib,  
Baland bir qoyaning uchiga chiqdi.  
Boqdi bulutlarga ko‘zini suzib,  
Yuksaklik zavqini surdi, miriqdi<sup>2</sup>.

She‘rning ruhiyatida o‘tkir kinoya “kosa tagidagi nimkosa”ni anglash unchalik qiyin emas. Ko‘lingdan kelgan ishga aralashgin, qo‘lingdan kelmagan ishdan yiroq bo‘lgin qabilidagi donishmandona hikmatlarni yodimizga soladi. Ayniqsa, shoir ana shu balandlikni xush ko‘radigan ba‘zi kimsalar, “egri-bugri” yashaydigan ayrim odamlarni keskin kulgi bilan tanqid qiladi. Echkidek yashash va uningdek bo‘lish – ongli mavjudot insonga xos emasligini Gulxaniy masallaridek o‘ziga xos tarzda tasvirlashga erishadi. Shuni qayd etish joziki, hajv qilinayotgan “Echki” obrazi xalq og‘zaki ijodida ko‘p vaziyatlarda, holatlarda kulgi va yumor ramzi sifatida qo‘llanilib kelinadi. Demak, shoir tabiatning bir yaratig‘i, aqlu farosatdan asar ham yo‘q “Echki”larni hech bir zamon kechira olmasligini yaqqol isboti bu. She‘rning yozilganiga qariyb o‘ttiz yil to‘lgan bo‘lsa-da, bugun ham shunday odamlar jamiyatda yashayotganini, asl maqsadlarimizdan chalg‘itishga urinayotganini rad etib bo‘lmaydi. Shoir ana shu hamma zamonda rad etilmaydigan tuyg‘ularni, obrazlarni she‘r konsturksiyasiga tartiblay olishi mahoratining yuksakligidan dalolatdir. Ba‘zi hollarda o‘zini o‘ylaydigan kaltabin kimsalarni ham she‘riy obrazlar orqali idrok qilishda bu usul juda qo‘l kelishi shubhasizdir. “Shoirning badiiy-ijodiy konsepsiyasida lirikaga epik unsurlarni olib kirilishi yangicha uslub sifatida olinishi mumkin. Shoir badiiy makonda voqelikni idrok qilar ekan, o‘zi ko‘rayotgan olam tasviri va uning mazmuniy chegarasini o‘quvchining ko‘rish, anglash maydoniga moslaydi. Ammo ana shu moslashish ostida yetuk estetik kechinma, hayotsevarlik, tabiatga muhabbat, yovuzlik, zulmni qoralash g‘oyalari yashiringan”. Bu xususiyatlar lirik she‘rni shoir qaysi makon va zamonda aks ettirish, yaratilish davridagi kayfiyatini ham hisobga olib tadqiq qilishda ayonlashadi. Shuningdek, har bir she‘r mavzu jihatidan, masalani obrazli yoritish tomonidan ham shoirning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Abdulla Oripovning juda ko‘plab she‘rlarida yengil yumor bilan izteholi kinoya, hajviy dunyoqarash singib ketganini payqash qiyin emas. Natijada ijodkor o‘zining

<sup>2</sup> Орипов А. Танланган асарлар. 2-жилд. –Т., Ф.Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. –Б..91



kayfiyati bilan emas, jamiyat kayfiyati, og‘riqlarini ham ich-ichidan his qilganligini anglay boramiz. Bu oniy kayfiyatning pragmatik talqini poetologik konstruksiyani bir muncha erkin harakatini ta’minlaydi.

Mana shu mulohazaga e’tibor beraylik: “Ular shoirga “poet” deb nom berdilar va bu ism eng maqbul sifatida boshqa tillarga ham o‘tdi. Bu so‘z “ijod qilish”, “yaratish” ma’nolarini anglatuvchi poiein so‘zidan kelib chiqadi. Ayni shu nuqtada – bilmadim, bu tasodifan bo‘lganmi yo ongli ravishdami – biz, shoirlarni “yaratuvchi” deb atagan inglizlar, yunonlar bilan hamfikir bo‘lib chiqdik”<sup>3</sup>. Demak, shoir sharqona ta’bir bilan baholasak qayta kashf qiluvchi, yaratuvchi, ijod qiluvchi shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Shoir A.Oripovning “Maqtanchoqlar” she’rida ham yengil mutoyibani jiddiy talqinini his qilamiz:

Bir kuni yig‘ildi uchta maqtanchoq,  
Har kim o‘z yutug‘in so‘ylay boshladi.  
Eng yuksak marrani zabt etgan qay choq?  
Boshlarin qashlashib o‘ylay boshladi<sup>4</sup>.

She’ning birinchi bandiga e’tibor berilsa, uchta maqtanchoq – turli xil hiylanayranglar bilan kun kechiruvchi odamlar. Ular jamiyat hayotida hech qanday rol o‘ynamasa-da, odamlar orasida o‘zlarining fe’lu atvorlari bilan boshqacha iz qoldirgan. Shoir ana shu uchta maqtanchoqni uch xil yo‘sinda sinovdan o‘tkazadi. Birinchi maqtanchoqning qimor o‘ynab shahar yutganligini hajv qilsa, ikkinchisida bir mashhur shoirning kuppakunduz qalam haqini o‘marib ketganligini kinoyalaydi, uchinchisida, ko‘rpaga berkinib olib, boshlig‘ini bo‘ralab so‘kkan maqtanchoqni talqin qiladi. Har uchalasi ham aslida, shoirning o‘zi bilgan, ko‘rgan, davradosh bo‘lgan insonlar xarakterini taqzoloaydi. Mana shu jihatdan qaralganda, shoir ijodida hajviyot nafaqat davrning, balki atrofidagi odamlarning bevafoolidan kuyinib so‘z yuritadi. Aynan, shoir ko‘zda tutgan poetologik konstruksiya she’ning butun mohiyatida kibr va maqtanchoqlik odamzodga hech qachon yaxshilik olib kelmasligini achchiq iztirob bilan qoralaydi. Bunday nomard kimsalardan mudomi yiroq yurish eng to‘g‘ri tadbir ekanligini o‘quvchiga ham anglatgani muhim ahamiyat kasb etgan.

Akademik M.Qo‘shjonov e’tiroficha: “Abdulla Oripov tabiatan satirik shoir emas. Biroq har bir she’rida nimalarnidir keskin inkor qiladi, nimalarnidir keskin yoqlaydi, keskin qoralaydi. Bu jihatdan u bemurosa shoirdir. Inkor qilish va yoqlash, inkor qilinadigan va yoqlanadigan tomonlarning ziddiyati ham uning she’rlarida juda

<sup>3</sup> Филип Сидни. Поэзия химояси. / Куронов Д., Рахмонов Б.Фарб адабий-танқидий тафаккури тарихи очерклари. – Тошкент: Фан, 2008 – Б.176-177.

<sup>4</sup> Кўрсатилган асар, 2-жилд. –Б.140.



o'tkir. Buning ustiga ziddiyat alohida hayajon va pafos bilan ifodalanadi. Ba'zan uning kichik-kichik syujetlarga murojaat qilishining sabablari ham shunda bo'lsa kerak. U hayot ziddiyatlarini ifodalashda ham poetik usullardan, syujet imkoniyatlaridan barobariga foydalanadi". Darhaqiqat, A.Oripovning she'rlaridagi ziddiyatlar pafosi nafaqat hajviy she'rlarida, balki inson ruhiyati, taqdiri, jamiyatdagi o'rni bilan bog'liq bo'lgan izlanishlarida ham yaqqol "ochiq" namoyon bo'lib turibdi.

### **Adabiyotlar:**

1. Yo'ldoshev Q. So'z yolqini. –T., "G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti". 2019. –B.31.
2. Quronov D., Rahmonov B. G'arb adabiy-tanqidiy tafakkuri ocherki. –T., "FAN". 2008. -B.55.
3. Nazar Eshonqul. Mendan "men" gacha. –T., "Akademnashr". 2014. –B.185.
4. Obidjon A. Gulmat Shoshiyning yovvoyi devoni. –T., "Sharq". 2003. -B.12.
5. Quronov D. va bosh. Adabiyotshunoslik lug'ati–T., "Akademnashr". 2010. – B. 139-140.
6. Homidiy H., Abdullayeva Sh., Ibrohimova S. Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1970. – B.308.
7. Yo'ldoshev Q. So'z yolqini. T., "G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi". 2018. –B.258.
8. Vohidov E. SHE'r dunyosi. Tanlangan asarlar, 2-jild. –T., "Sharq". 2001. – B.180.
9. Shukurov N. Jonim – she'riyatim. O'zbek adabiy tanqidi. Antologiya. –T., "Turon-Iqbol". –B.104.
10. Vohidov E. Umrim daryosi. Tanlangan asarlar, 2-jild. –T., "Sharq". 2001. – B.103.

